

YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI KURASHISH VA ULARDA SOG'LOM MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKILLANTIRISH

kursanti Ahmadaliyev Rahmonjon
Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi
kunduzgi ta'lim 3-kurs 326-guruh

Annotatsiya.

Ushbu maqola, yoshlarning destruktiv g'oyalarga qarshi kurashish va ularda sog'lom mafkuraviy imunitetni shakillantirishning pedagogik - psixologik imkoniyatlari va ta'lim berishda uchrayotgan kamchiliklar va ularning bartaraf etish choralari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: g'oya, psixologiya, destuksiya, hulq, immunitet, mafkura, kasbiy, ekspert, faoliyat, muassasa, soha, integratsiya, ma'rifat, konstitutsiya.

Abstract

This article presents the pedagogical and psychological possibilities of young people to fight against destructive ideas and form a healthy ideological immunity in them, as well as the shortcomings encountered in education and the measures to eliminate them.

Keywords: idea, psychology, destruction, attitude, immunity, ideology, professional, expert, activity, institution, field, integration, enlightenment, constitution.

Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda, sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni **O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi** sifatida yuksak qadrlayman. **Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz va azmu shijoatingizga suyanamiz.** Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o'z oldimizga ulkan marralarni qo'yanamiz. **Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik.** Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni doimo asrab-avaylab keladi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi.

SH.M.Mirziyoyev

Insonning shaxs bo'lib shakllanishi, uning dunëqarashining tarkib topishining asosiy qismi ta'lim olish davriga to'g'ri kelishini hisobga olgan holda aytish mumkinki, mazkur jaraënda pedagog-o'qituvchilarning ahamiyati katta. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, bolaga ta'lim bilan birgalikda tarbiya berish jaraëni o'qituvchidan alohida malaka, ko'nikma

va tajribani talab etadi. Mutaxassislar fikricha, pedagogika kasb-hunar kollejarini tamomlaётgan mutaxassislar umumiy o‘rta ta‘lim ёshidagi o‘quvchilarga zaruriy bilim, ko‘nikmalarni berish imkoniyatiga ega emas.

Ekspertlar bahosiga ko‘ra, ta‘lim tizimida ishlaётgan pedagoglarning oylik ish haqining kamligi, o‘qituvchilarning ijtimoiy mavqeining pasayib ketaётgani sababli sohadagi aksariyat oliy o‘quv yurtlarini tugataётgan ёsh kadrlarda ham o‘qituvchilik kasbga nisbatan qiziqishning kamayishiga sabab bo‘lmoqda. 2020-yilda qabul qilingan Kadrlar tayёрlash milliy dasturida ta‘lim tizimida bartaraf etilishi zarur bo‘lgan kamchiliklardan biri sifatida o‘qituvchi ijtimoiy mavqeining pastligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bugungi kunda kelib mazkur dasturda tilga olingan kamchiliklarning deyarli barchasi bartaraf etilgan bo‘lishiga qaramasdan, aynan o‘qituvchi shaxsi ijtimoiy maqomining pastligicha qolaётgani, ularning pedagoglik kasbga qiziqishining pasayib borётgani kuzatilmoqda.

Bunga asosiy sabab sifatida, joylarda mahalliy hokimliklar tomonidan o‘qituvchi va murabbiylarni o‘z professional vazifalariga mansub bo‘lmagan ishlarga jalb etilaётganini keltirish mumkin. Xususan, qishloq xo‘jalik, tozalash ishlari, metallolom, makulatura yig‘ish va shu kabilar. Shuni ta‘kidlash kerakki, asosiy vazifasi bolalarga ta‘limtarbiya berish bo‘lgan o‘qituvchilarning bunday ishlarga jalb etilishi ularni ta‘lim jaraёnidan chalg‘itmoqda va bu o‘z navbatida, ta‘lim sifatiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilab ularga oqilona yechim topish va natijalarni to‘g‘ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan “Bolalar huquqi to‘g‘risidagi Deklaratsiya”da bolalarga jismoniy va ma‘naviy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi”, “gunoh qilgan bola to‘g‘ri yo‘lga solinishi”, “og‘ir damlarda bola mehr ko‘rib voyaga yetishi va himoya qilinishi” ta‘kidlanadi. BMTning Ta‘lim, Fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti – YUNESKO ma‘lumotlariga qaraganda, bugunki kunda jahonda o‘n millionlab bolalar ta‘lim olishdan mahrumligicha qolmoqda, 85 millionga yaqin bola mutlaqo o‘qish va yozishni bilmas ekan. Savodsizlik, o‘z navbatida, o‘smirlarning kelajagiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan, o‘smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining sabablari psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasining muhim jihatlarini izohlovchi nazariy va metodologik yondashuvlarning psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosidagi ilm-fan va texnologiyalarning jadal takomillashuvi va buning natijasida ijtimoiy taraqqiyotning ham tubdan o‘zgarib borayotganligi sababli insongagina xos bo‘lgan ong va tafakkur vositasida shaxsning voqelik va undagi qonuniyatlar haqida fikr yuritishi, yoshlar ongida tushunchalar, hukmlar va xulosalar vujudga kelishi, insoniyatning hozirgi

taraqqiyot bosqichida yoshlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o'qishi va mehnat faoliyatidagi turli-tuman muammolarga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bolalar bo'yicha AQSH Milliy komissiyasi tarqatgan ma'lumotlarga qaraganda, - "Ko'p holatlarda bolalar arzimagan narsalar uchun va zarurat bo'lmasa ham oilalardan tortib olinib, ularni jinoyatchi qilib tarbiyalanayotganligi, Germaniyada yuz berayotgan jinoyatlarning teng yarmi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotganligi aytiladi. Bolalarning giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar safiga kirib qolayotgani, yoki odam organlari bilan savdo qilayotganlar qo'lga tushib qolayotgani ham ayanchlidir. Bir qator mamlakatlarda balog'atga yetmagan bolalar jangarilar safida qo'lga qurol olib jangqilayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi". O'smirlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni psixologik jihatdan tahlil qilish hamda zaruriy psixoprofilaktik chora-tadbirlar belgilash mexanizmlarini aniqlashga hamda xulq-atvormalarini tadqiq etishga mazkur tadqiqot nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Umuman, yoshlarga va voyaga yetmagan shaxslarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik ularning barkamolligini ta'minlash bilan bir qatorda, Vatanimizning iqtisodiy, siyosiy, intellektual salohiyatini oshirishga, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Voyaga yetmagan shaxslarda xulq og'ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda o'smir shaxsi subyekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Obyekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta'sir etuvchi element sifatida ifodalanadi. Subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar mutanosibligini ta'minlash esa voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi kelib chiqishining oldini olishga, ulardagi agressiya holatlarini bartaraf qilishga xizmat qiladi.

O'smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba'zan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmush tarzini belgilasa, ba'zan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'smirlarda g'ayriqonuniy xulqatvor kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta'sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o'smirning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishini taqazo qiladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta'sirchanligi, eng avvalo, o'smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg'ulotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Agressiv xulq-atvoriga ega bo'lgan, xulqida og'ishish mavjud bo'lgan o'smirlarni o'z vaqtida aniqlash, muammolarni bartaraf etish, xulqi og'ishgan o'smirlarning jinoyatga yo'l qo'yishlarini oldini olish, voyaga yetmagan shaxslar jinoyatini oldini olish va ular bilan

ishlash Ichki ishlar xodimlarining va amaliyotchi psixologlarning oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Agressiv xulq-atvorli o'smirlarni aniqlash va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator maslahat va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Agressiv xulq-atvorli o'smirlarning ta'lim muassasas jamoasidagi o'rni va uning sinfdoshlar, do'stlari, tengdoshlari va atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlarini sog'lomlashtirish.
2. Agressiv xulq-atvorli o'smirlarning shaxs xususiyatlarini har tomonlama o'rganish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishga erishish.
3. Agressiv xulq-atvorli o'smirlarning sinf va maktab jamoasidan izolyatsiyalanishi (ajralib qolishlik) ning oldini olish tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish.
4. Agressiv xulq-atvorli o'smirlarni qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib sinfda va sinfdan tashqarida o'tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish.
5. Sinf jamoasi a'zolarida sog'lom psixologik munosabat hissini shakllantirish.
6. Sinf va maktab jamoasida tarbiyasi qiyin o'smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini yuzaga keltirish.
7. Agressiv xulq-atvorli bolalar va o'smirlarning ustun shaxs xislatlari, jismoniy barkamolligidan kelib chiqib, ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, ya'ni sinfdan tashqari ishlarda ularga sardorlik, boshqaruvchilik ishlarini topshirish mumkin. Bu orqali o'smirda o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan ishonchini orttirish, ijtimoiy voqeahodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatini o'zgartirishga erishish mumkin.

Bulardan ko'rinib turibdiki, shaxs xulqidagi og'ishni tuzatishga harakat qilishda, eng avvalo, o'smir shaxsiga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishiga hamda o'smirning motivatsion ehtiyojlar sohasini o'zgartirishga, nosog'lom turmush tarzi va tarbiya muhitini sog'lomlashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'smirlardagi mavjud bo'lgan ijobiy sifat va xususiyatlariga tayangan holda ularda har tomonlama qiziqishni, birinchi navbatda, o'qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish zarur bo'ladi.

Agressiv xulq-atvorga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro yaqinlik va sog'lom munosabatni o'rnatishga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchining tarbiyasi og'ir o'smirda nisbatan berayotgan e'tiborini, ularni o'zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo'layotganligini o'smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o'smir xulqini sog'lomlashtirishga qo'yilgan ilk qadam bo'lib hisoblanadi.

Agressiv xulq-atvorli o'smirlar xulqini tuzatishning keyingi sharti o'smir psixikasidagi o'zgarishni o'z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish hisoblanadi. Bunda amaliyotchi psixologning xizmati katta bo'lishi lozim. Shu o'rinda

ta'kidlash joizki, tayanch punktlari qoshidagi profilaktika nozirlari zimmasiga voyaga yetmaganlar bilan ishlash xizmatini yuklash yoki bo'lmasa voyaga yetmaganlar bilan ishlash profilaktika nozirlari xizmatini har bir mahallada alohida joriy qilish, bizningcha maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, uchastka voyaga yetmaganlar bilan ishlash nozirlarini psixologik-pedagogik, psixatrik boshlang'ich bilimlar bilan qurollantirish davr taqozosi hisoblanadi.

Shuningdek, profilaktika sifatida maktab, o'rta maxsus ta'lim maskani faoliyatiga psixiatr shtatini joriy etish yoki bo'lmasa, maktab psixologi tibbiy-psixatrik bilimlar bilan qurollantirilishi yaxshi natija beradi. Bu masalani malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'smirlarda agressivlik va jinoyatchilik xulqining oldini olishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'smirlarning oilaviy muhiti, tarbiyalanganlik darajasi va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki, oila muhitini bilishlik o'smir shaxsi haqida, uning tarbiyalanganlik darajasi va turmush tarzi, ijobiy va salbiy fazilatlar haqida ma'lumotlarni beradi. Bu orqali xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olish ishlariga o'smir oilasi a'zolarini ham jalb qilish mumkin bo'ladi. Oila, mahalla, maktab ta'sirlarining o'zaro hamohangligi ko'zlangan natijalarni qo'lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni huquqbuzarliklar, zararli illatlar, ekstremistik g'oyalar va "ommaviy madaniyat" ta'siridan himoya qilish bugungi globalizatsiya sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Respublikada Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyat olib boraётgan bo'lib, e'shlarga oid davlat siёsatini amalga oshirishda uning vazifasi sifatida dunёda yuz beraётgan murakkab geosiёsiy va g'oyaviy-mafkuraviy jaraёнlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur tushuntirish, terrorism, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish belgilangan.

O'smirdagi deviant xulq darajasini aniqlash uchun ruhshunos o'smir bilan yakka tartibda aniq maqsadli suhbat o'tkazishi kerak. Suhbat uchun mutaxassislar tomonidan quyidagi tartibda savollar berishi maqsadga muvofiqdir. O'smir o'zini uydagi, maktabdagi xulq-atvorini doimo to'g'ri deb o'ylaydimi? Agar u doimo haqman deb o'ylasa, nima uchun kattalar, ya'ni ota-onasi, o'qituvchilari uni intizomsizlikda, buysunmaslikda ayblashadi? Agar u o'zining xulq-atvoridagi noma'qulchiliklarni bilsa, bu illatga kim yoki nima aybdordir? O'smir o'zining noto'g'ri xatti-harakatlaridan og'rinadimi? Maktabga borish davomati qay darajada: muntazam, sababsiz dars qoldirishlar uchrab turadi? uzluksiz dars qoldiradimi? Bo'sh vaqtini qayerda o'tkazadi: uyda, ko'chada, do'stlari bilan? Zararli odatlari bormi: chekish, spirtli ichimliklarni ichish, giyohvand moddalarni qabul qilish. Nima uchun u zararli odatlarga bog'lanib qolgan? Agar u zararli odatlarga ko'nikib qolmagan bo'lsa, hayoti davomida bir bora bo'lsa ham iste'mol qilganmi? Uning fikricha ota-onasi yetarlicha ta'minlay olmadilarmi? Agarda u qandaydir qimmatbaho buyumni olmoqchi bo'lsayu, yetarli mablag'ni topa olmasa, sharoiti bo'lmasa, u o'sha narsani yoki kerakli pulni o'g'irlash haqida

o‘ylab ko‘rganmi? Ozodlikdan mahrum qilish zonalarida o‘tirib chiqqan do‘stlari bormi? Bor bo‘lsa, ularga nechog‘liq yaqin? Yaqin bo‘lsa, nima uchun ular bilan muloqot qilish unga muhim? Yuqoridagi do‘stining fikrini, qiziqishlari, xohishlariga u qanchalik ahamiyat beradi. Kimdir uni ranjitsa, uni kaltaklash istagi tug‘iladimi? U ichki ishlar tarmoq idoralari orqali huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilganmi? Agar javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, uning sabablari nimada? U o‘zi uchun qanday xulosa chiqaradi? O‘z-o‘zini o‘ldirish haqida o‘ylaganmi, o‘ylagan bo‘lsa, bunday fikrga qanday qilib yo‘l qo‘ygan? Hayotining ayni hozirgi damlarida uning uchun qimmatli hisoblangan qadriyat: maktab, ko‘chadagi do‘stlari, guruhda yig‘ilish, bilim olish, ishlash, pul topish, va hakoza.

O‘smir bilan tahliliy suhbat davomida quyidagi mazmundagi savollarni berish maqsadga muvofiqdir: maktabda o‘qish unga qiziqmi, qaysi fanlarga qiziqadi? qaysi o‘qituvchini va nima sababdan yaxshi ko‘radi? «a‘lochi» bo‘lishni, yaxshi o‘qib, kelgusida o‘zi yaxshi ko‘rgan kasbga ega bo‘lish uchun kollejga kirishni istaydimi? Kelajagini qanday tasavvur qiladi? Uning fikricha, kattalar hayotining bosh mezoni nima? Jamiyatda qanday o‘rin tutishni, kim bo‘lishni orzu qiladi? Kasb-hunarlar haqida nima biladi, qanday kasblar unga yoqadi? Uning fikricha, kasb egasi bo‘lishi uchun u qayerda ilm olishi kerak? O‘zi uchun biron-bir kasbni tanladimi, tanlamagan bo‘lsa nima uchun? Qanday qiziqishlari, xobbisi bor, yana nima bilan shug‘ullanishni istaydiyu ammo bunga sharoiti yo‘l qo‘ymaydi? Bironbir faoliyatga alohida qobiliyatim bor deb hisoblaydimi? Kelajakda o‘zi va oilasini boqadigan darajada yaxshi mutaxassis bo‘la oladimi? O‘z oilasiga qanday munosabatda va kelgusi oilaviy shaxsiy hayotini qanday tasavvur qiladi? Kelajakda muvaffaqiyat qozonish uchun o‘tmishda yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzata oladimi? Uning uchun kelajakda munosib yashash va boshqalarga kerakli bo‘lish muhimmi? Hayotdan maqsadi nima va uni qanday amalga oshirmoqchi? Shunday qilib, javoblar natijasida o‘smirning o‘qishga, hayotiy va kasbiy kelajagiga bo‘lgan qarashlarini aniqlash mumkin. Ruhshunoslarning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi qarashlar shaxsning rivoji uchun muhim bo‘lgan sifatlardir. Shu narsani bilish muhimki, deviant xulqli o‘smirlar bilim olishga, ko‘pincha salbiy munosabatda bo‘lishadi, kelajakda esa mavhum bir tushuncha deb qarashadi. Ularning ko‘pchiligi kelajakda nima bilan shug‘ullanishni, nima qilishni tasavvur ham qilmaydi. Bu o‘smirning hayotiy va kasbiy qadriyatlarni bilmasligidan va tushunmasligidan kelib chiqadi. Yuqoridagi xulosalarni bilish deviant xulqli o‘smirlarning ijtimoiy-ruhiy xususiyatlari analizi natijasini tahlil qilishimiz davomida kerak bo‘ladi. Ruhshunoslar xulosalari natijalari tahlili bilan shug‘ullanishida quyidagi toifa o‘smirlar bo‘lishini hisobga olish kerak. Tarbiyaga og‘ir beriluvchi – tarbiya jarayoniga, qayta tarbiya qilishga bo‘ysunmaydigan, atrof bilan ijtimoiy murosa qila olmaydigan, jamiyat, oila, maktab talablariga zid ish qiluvchi o‘smir. Bunday harakatlarini quyidagi sabablari bo‘lishi mumkin: aqliy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi qusurlar; ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyatining yetishmasligi; o‘z-o‘zini baholashda hayotiy mezonlarini belgilashga noto‘g‘ri yondashuv; jinoyatchi, norasmiy

guruhlardagi shaxslarning ta'siri; deviant, addiktiv xulqqa, jinoyatchilikka huquqbuzarlikka; shaxsning individual, xarakterli xususiyatlari.

References

1. B. Sodiqov., Deviant xulq bolalar psixologiyasi. Termiz 2010-yil T.: 2008-yil
2. Yu. Asadov., R. Musurmanov. O'smirlar deviant hattiharakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya). T.: 2011-200s.
3. Актуальные проблемы deviantnogo povedeniya: Sb.st./ RAN; In-t sotsiologii. - M.,1995.
4. Zyubin L. M. "Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar". T., -1987.
5. Afanasev V.S., Gilinskiy Ya.I. Deviantnoye povedeniye v usloviyax totalnogo krizisa: osobennosti, tendensii, perspektivy // Obraz mysley i obraz jizni. - M.,1996. - s.147 - 162.